

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENTSIYANING AMALGA OSHIRILISHI TIZIMI

Ro'ziboyev Mavlonbek Durbek o'g'li

Andijon viloyat yuridik texnikumi

Elektro'n po'chta manzili;

Mavlonusmanov@gmaile.com

ANNOTATSIYA Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasida bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirilishining xalqaro-huquqiy masalalarini korib chiqib ularga sharh beradi. Shuningdek Bola huquqi tushunchasining xalqaro huquqiy ta'rifi, Bola huquqlari va qonuniy manfaatlarining halqaro huquqiy himoyasi rivojlanish bosqichlari, Bola huquqlari to'g'risidagi Bola xuquqlari boyicha O'zbekiston Respublikasida davlat siyosatini yuritish, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada ko'rsatilgan umumiy choralarining O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilishi bosqichlarini ham korib chiqib ularni xulosalaydi.

Kalit sozlar; bola, huquq, konvensiya, qonun, dekloratsiya, pakt, provision, protection, partisipation, BMT, Markaz, Komitet.

Bola huquqi tushunchasining xalqaro huquqiy ta'rifi. Bola huquqlari – bolalarga tegishli inson huquqlaridir. Ushbu sohadagi xalkaro hamkorlikni belgilovchi maxsus me'yordi ishlab chiqishga, bolaning o'ziga xos holati sabab bo'lgan chunki, ular balog'at yoshiga yetgan bolalar davlatning ichki ¹qonunchiligiga muvofiq ega bo'lgan barcha huquqlarga ega emaslar. Bundan tashqari, bir qator holatlarda bolalarning yoshi, oiladagi o'rni va boshqalar bilan bog'lik maxsus huquqlarga egaligi yoki ega bo'lishi kerakligi belgilangan. Aynan Bola huquqlari – har bir bola (18 yoshga to'lmagan shaxs bola hisoblanadi) hech qanday cheklashlarsiz ega bo'lishi lozim bo'lgan huquq va

1. ¹ Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik // Prof. G'.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYul nashriyoti, 2008

erkinliklardir. Bolalar va yoshlar kattalar bilan bir xil inson huquqlariga ega va bu barcha tomonidan tan olinadi.. «Bola» tushunchasi ilk bor o‘z terminologik ta’rifini Birlashgan Millatlar²Tashkiloti tomonidan inson huquqlariga oid qabul qilingan qator xalqaro huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan. Qoida bo‘yicha, turli mamlakatlarda «bola tushunchasi» belgilanishi milliy qonunchilikda belgilangan ayol va erkak jinsidagi shaxslarning yoshiga oid me’yorlarga bog‘liqidir. Yu.M.Kolosov fikricha, birinchi holda ishtirokchi davlatlar, Konvensiya bo‘yicha majburiyatlarini halol bajarish uchun, 18 yoshgacha bo‘lganlarga nisbatan jins bildiruvchi «bola» tushunchasini qo‘llanish to‘g‘risidagi qoidani qonunlarda mustahkamlashi zarur. Bu fikrga qo‘shilish mumkin. Bola huquqlari va qonuniy manfaatlarining halqaro huquqiy himoyasi taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Siyosiy va huquqiy ta’limotlar tarixida asosan inson huquqlari va erkinliklariga e’tibor berilsa-da, bola huquqlari muammolariga umuman ahamiyat berilmas edi Hozirgi mamlakatlar bola huquqi va qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olishda, avvalo, davlat va oila muhofazasidan foydalanishlari va bu, o‘z navbatida, ko‘pincha kattalar bilan uchraydigan vaziyatga qaraganda yuqori darajada bo‘lishi kerak. Chunki bola huquqlari, uning hayoti, rivojlanishi, ta’limi va tarbiyasi hakida qayg‘urish hozirgi kunning umuminsoniy, xalqaro muammolaridan biridir. Buning dalili sifatida XX asrning so‘ngni o‘n yilliklarida xalqaro hamjamiyat tomonidan Bola huquqlari to‘g‘risidagi Deklaratsiya (1959), Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya (1989) va boshqa bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bolalar huquqlari va manfaatlarini xalqaro huquqiy himoya qilish 4 asosiy bosqichni bosib o‘tgan

Birinchi bosqich: 1923 yilda angliyalik ayol Eglantayn Djebb tomonidan asos solingan Bolalarni qutqaring Xalqaro Kengashi faoliyati doirasida bolalarga tegishli zarur himoyani ta’minalash va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish bo‘yicha jamiyat olib borishi kerak bo‘lgan ishlarni o‘z ichiga olgan Deklaratsiya ishlab chiqildi 1959 yilda BMT Bosh

2. ² O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori, 09.12.1992 yildagi 757-XII-sod O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 1-con, 41-modda

Assambleyasi tomonidan Bola huquqlari deklaratsiyasi (bundan buyon 1959 yil Deklaratsiyasi» deb ko‘rsatiladi) qabul qilinishi bilan belgilanadi

³Uchinchi bosqich esa, BMT doirasida bola huquqlariga bag‘ishlangan konvensiyani yaratish mumkinligi va zarurligi to‘g‘risidagi masala ilk bor 1970 yilda muhokama etilishi bilan belgilanadi. Ikkinchi va uchinchi bosqich orasida inson huquqlari to‘g‘risida 1966 yilgi Xalqaro paktlar mavjud bo‘lib, ularda har bir kishiga, shu jumladan bolaga ham huquqlar berilgan edi-ki, ushbu xalqaro shartnomalardagi «har kim», «hech kim», «barcha shaxslar» degan ta’riflar bundan dalolat beradi

To‘rtinchi bosqich: esa, 1989 yilgi Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya qabul qilinganidan so‘ng bola huquqlari rivojlanishining yangicha tus olishi, avvalo, BMT YuNISEF ko‘magida 1990 yil 30 sentabrda Nyu-York shahrida Bolalar manfaatlariga bag‘ishlangan yuqori darajadagi Umumjahon Uchrashuvi bo‘lib o‘tishi bilan boshlandi. Ushbu Uchrashuvda Bolalarning yashash tarzini yaxshilash, himoya qilish va rivojlanishini ta’minalash bo‘yicha Umumjahon deklaratsiyasi hamda Umumjahon deklaratsiyasini amalga oshirish bo‘yicha Harakat dasturi qabul qilindi. Bola huquqi tushunchasining xalqaro huquqiy ta’rifi Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya inson huquqlari tarixida eng keng qabul qilingan shartnomalardan biri hisoblanadi. Avvallari bolaning huquqiy maqomi jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda milliy darajada tartibga solinar edi. Bugun esa bolani himoya qilish va ularning huquqlari to‘liq amalga oshirilishini kuzatib turish ushbu mamlakatlar hukumatlarining rasmiy majburiyatları natijasida yaxshilanishi mumkinligiga ishonch xosil kilindi. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi qabul qilinishi bunga to‘liq asos bo‘la oladi. Konvensiya uch qismdan: Muqaddima, Asosiy qoidalar (1–41-moddalar) va Yakuniy qoidalar (42–56 moddalar) dan iborat. Ayrim mualliflar Konvensiyani tavsiflashda bola huquqlarini, 1966 yilgi Inson huquqlari to‘g‘risidagi Xalqaro paktlarda mustahkamlangani singari, an‘anaviy ravishda fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga

3. ³ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori, 09.12.1992 yildagi 757-XII-son

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 1-con, 41-modda

bo‘lishni tavsiya etishadi. Biroq bu masalada yakdillik yo‘q va bu butunlay qonuniyatli holdir. Bu, eng avvalo, fuqarolik va siyosiy huquqlar fanda turlicha tushunilishi bilan bog‘liq. Yu.M.Kolosov fikricha, birinchi holda ishtirokchi davlatlar, Konvensiya bo‘yicha majburiyatlarini halol bajarish uchun, 18 yoshgacha bo‘lganlarga nisbatan jins bildiruvchi «bola» tushunchasini qo‘llanish to‘g‘risidagi qoidani qonunlarda mustahkamlashi⁴ zarur. Bu fikrga qo‘shilish mumkin Shunday qilib, BMT Nizomi inson huquqlari sohasida xalqaro shartnomalarini ishlab chiqish va⁵ ularni nazorat qilish bo‘yicha nazorat mexanizmlarni yaratishni o‘z ichiga organ inson huquqlarini xalqaro himoya qilish mexanizmlari vujudga kelishining huquqiy sohasini yaratdi. Nazorat mexanizmi Konvensiyaning 43–45-moddalarida mustahkamlangan. Bu mexanizmda asosiy rol Bola huquqlari bo‘yicha Komitetga berilgan. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyada ko‘rsatilgan umumiy choralarining O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilishi. Xalqaro huquq normalarining implementatsiyasi u yoki bu shartnomaning ishtirokchi-davlatlar tomonidan xalqaro huquq m’yorlarini ichki qonunlarda takror ishlab yaiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan huquq me’yorlarini ishlab chiqish faoliyatidan iborat emas. Balki, xalqaro-huquqiy me’yorlarni bevosita amalga oshirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy xarakterdagi keng miqiyosdagi chora tadbirlarni bajarish nazarda tutiladi. Shu munosabat bilan, 4-moddada Konvensiya asosiy qismida mavjud bo‘lgan qoidalarning bajarilishi bo‘yicha davlatlarning umumiy majburiyati keltirilgan, unga ko‘ra davlatlar «barcha zarur qonuniy, ma’muriy va boshqa choralarini» ko‘rishlari lozim. Bola huquqlari bo‘yicha davlat siyosatini yurgazishda qonunchilik palاتasi tomonidan 2007 yil 23- noyabrda qabul qilingan senat tomonidan 2007 yil 1-dekabrda maqullangan “bola huquqlari kafolatlari” tog‘risidagi qonunda shunday diyilgan, Bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini

⁴ BMTning bola huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro kanvensiyaning qabul qilinganligining 30- yilligi munosabatibilan otkazilgan ilmiy-amaliy kanferensiya

⁵ Bola huquqlari. / Yuridik oliv o‘quv yurtlari uchun darslik // Prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI nashriyoti, 2008

ta'minlash; bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish; bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish; bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash; bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish; bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta'minlash; bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish; bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik va tinchliksevarlik tuyg'ularini tarbiyalash; bolani O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'analari, ma'naviy qadriyatlari hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish; bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish; bolalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash; bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish; bola huquqlarini ta'minlash maqsadida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik qilish; bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish; bolalarning ijtimoiy ko'nikmasiga, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklarni kamaytirishga ko'maklashish Hozirgi kunda bola huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida institutsional tizim yaratilgan, bular jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar bo'yicha Komissiyalar, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qoshida voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi va boshqa jamoat tashkilotlari kiradi. Voyaga yetmaganlar bo'yicha komissiyalar voyaga yetmaganlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ular tomonidan huquqbazarliklar sodir etilishining oldini olish, bu yo'nalishda mas'ul

bo‘lgan davlat idoralari, jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tuzilg⁶an organ hisoblanib, jamoatchilik asoslariga tayanib ish yuritadi.

XULOSA

Bola huquqlari tug‘risidagi Konvensiyaning ahamiyati har taraflamadir. Jamiatning eng zaif guruhi sifatida bolaning huquqlari va manfaatlarini muxofaza qilishga qaraganda, uning maqsadi ko‘proqligini alohida ta’kidlash lozim. Konvensiya umuminsoniy qiymatni kasb etib, BMT Muqaddimasida e’tirof etilgan, oliy maqsad ruhida, barkamol avlodni munosib ravishda tarbiyalashdagi asosni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bola huquqlari. / Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik // Prof. G‘.Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYuI nashriyoti, 2008
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori, 09.12.1992 yildagi 757-XII-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 1-con, 41-modda
4. «Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019-yil 22 apreldagi [PQ-4296-sonli](#)
5. BMTning bola huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro kanvensiyaning qabul qilinganligining 30- yilligi munosabatibilan otkazilgan ilmiy-amaliy kanferensiya
6. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga sharhlar» / Mas’ul muharrir A.X.Saidov – Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi,
7. BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLARI TO‘G‘RISIDA Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2007-yil 1-dekabrda ma’qullangan qonun hujati⁷

5. ⁶ BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLARI TO‘G‘RISIDA Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2007-yil 1-dekabrda ma’qullangan qonun hujati